

**QASHQADARYO VILOYATI TOG‘ VA TOG‘ OLDI TUMANLARI
UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MUASSASALARINING HUDUDIY
JOYLASHUVI VA IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHI**

*Nurmatov A.U - Shahrisabz davlat
pedagogika instituti o‘qituvchisi*

*Tuychiyev X. Sh - Shahrisabz davlat
pedagogika instituti talabasi.*

*Azimova N.B - Shahrisabz davlat
pedagogika instituti talabasi. O‘zbekiston*

Annotatsiya: *Ushbu maqola Qashqadaryo viloyatining tog‘ va tog‘oldi hududlarida umumta‘lim muassasalari infratuzilmasini rivojlantirishdagi dolzarb muammolarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Hududning o‘ziga xos geografik sharoitlari, aholi zichligi va resurslarning cheklanganligi ta‘lim sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardir. Tadqiqotda mavjud kamchiliklar, jumladan, maktab binolarining eskirganligi, moddiy-texnik bazaning yetishmasligi va pedagog kadrlar taqchilligi chuqur o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *tabiiy sharoit, rekonstruksiya, ta‘lim infratuzilmasi, umumta‘lim muassasasi, xususiy sektor, hududiy joylashuv, maktab infratuzilmasi.*

**TERRITORIAL LOCATION AND SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT
OF GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS OF TAG AND
TAG OLDI DISTRICTS OF KASHKADARYA REGION**

Nurmatov A.U - Teacher of Shahrisabz State Pedagogical Institute

Tuychiyev X. Sh - Student of Shahrisabz State Pedagogical Institute.

Azimova N.B - Student of Shahrisabz State Pedagogical Institute. Uzbekiston

Abstract: *This article is devoted to the analysis of current problems in the development of the infrastructure of general education institutions in the mountain and sub-mountain regions of Kashkadarya region. The specific geographical conditions of the region, population density and limited resources are the main factors affecting the quality of education. The existing shortcomings, including the old school buildings, the lack of material and technical base, and the shortage of pedagogic personnel, were thoroughly studied in the research.*

Key words: *natural conditions, reconstruction, educational infrastructure, general education institution, private sector, territorial location, school infrastructure.*


Geografik omillar ta'sirida aholining qadimiy tabiiy sharoit qulay hududlarda joylashishi, aholi punktlarining yirik masshtabdan mayda masshtabda shakllanishiga sabab bo'lgan. Shuning uchun har bir mintaqa, davlatlar rivojlanishini "ichkari"dan yirik masshtabli o'lchamlar orqali o'rganish bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi muhim masalalardan hisoblanadi [2]. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa maktab infratuzilmasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. 2021-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi"da har bir hududda zamonaviy o'quv muhitini yaratish, ta'lim muassasalarini teng va adolatli taqsimlash, ularning salohiyatini oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Biroq mavjud vaziyat tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Qashqadaryo viloyati, xususan, tog'li va chekka hududlarda joylashgan tumanlarda umumta'lim muassasalari infratuzilmasi bir xilda rivojlanmagan [5]. Viloyatda aholining demografik ko'payishi, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar sonining ortib borayotgani, ayrim hududlarda yangi maktablar qurilishiga bo'lgan ehtiyoj, mavjud binolarning jismoniy va funksional jihatdan eskirganligi kabi muammolar mavjud. Bundan tashqari, hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari, transport-logistika sharoitlari hamda tabiiy-geografik omillar ham maktab infratuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2025-yil 27-dekabrda "2026-2028-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹ gi PQ-393-son qarorida barcha hududlar qatori Qashqadaryo viloyati bo'yicha ham obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqilgan. Qarorda jami 52 ta ta'lim muassasi, jumaladan, 38 ta yangi maktab, 14 ta maktabgacha ta'lim muassasi, 3 ta maktabda jami 990 sig'imga ega bo'lgan sport zallari qurish, 11 ta maktabni yangitdan buzib qurish bo'yicha manzilli yo'l xaritasi ishlab chiqilgan. Ushbu yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash uchun davlat byudjet mablag'laridan jami 74 783,1 mln so'm ajratilgan bo'lib, Qashqadaryo ta'lim tizmining boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan maktabgacha va maktab ta'limi infratuzilma holatining yaxshilanishi uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi. 2026-yil davomida viloyatning tog' va tog'oldi tumanlarida yangitdan qurilishi rejalashtirilgan Shahrisabz tumani "Xazara" MFYdagi "Yuqori Xazara" qishlog'ida hududida yangi umumta'lim maktabi qurish va boshqa tumanlarda ham 120 o'rinlidan 480 o'ringacha bo'lgan qo'shimcha o'quv bino qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshiriladi [1].

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-7955865>

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining hududiy joylashuvi iqtisodiy geografiyaning muhim kategoriyalaridan hisoblangan geografik o'rin tushunchalaridan biri bo'lib, u aholi punktlari, tabiiy sharoit va infratuzilma bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Maktablarning hududiy joylashuvi nafaqat o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini, balki ta'lim sifati, ijtimoiy tenglik va hududiy rivojlanish darajasini ham belgilaydi. Tog' va tog'oldi hududlarda maktablarning joylashuvi tekislik hududlariga nisbatan murakkabroq bo'lib, bu yerda relyef, iqlim, tabiiy geografik jarayonlar va transport cheklovlari muhim rol o'ynaydi [4, 6]. Shu sababli bunday hududlarda maktab tarmog'ini optimallashtirish alohida ilmiy yondashuvni talab qiladi. Relyefning notekisligi, aholi punktlarining tarqoq va kam sonli ekanligiga sabab bo'lgan. Relyef va tabiiy geografik jarayonlarning ta'sirida transport infratuzilmasining rivojlanish darajasi past darajada bo'lib, o'quvchilarning yoshlarning maktablarga qatnov darajasini qiyinlashtiradi. Ba'zi qishki sovuq anomal ob-havo sharoitida umumta'lim muassasalarining moddiy-texnik holatiga szilarli ta'sir etib, isitish tizimi, kanalizatsiya, oqova suv tarmog'iga yuklama oshgani holda, maktabga qatnash qiyinlashadi va bahorgi mavsumda qor ko'chkisi, sel hodisasi tufayli ba'zi aholi punktlarida maktablar bir necha kunlab yopiladi. Tog' va tog'oldi ma'muriy hududlardagi bunday omillar isitish tizimi, yo'l infratuzilmasi holatini yaxshilash uchun qo'shimcha mablag' talab etadi, bu esa iqtisodiy geografik kategoriyalar masalan, hududiy ixtisoslashuv bilan bog'liq holda amalga oshadi. Tog' va tog'oldi qishloq tumanlari umumta'lim muassasalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liqligi nafaqat maktablar infratuzilmasining holati, shuningdek ta'lim sifat darajasini ham belgilab beradi. Qashqadaryo viloyatining tog' va tog'oldi hududlarida iqtisodiy faoliyat asosan qishloq xo'jaligi va chorvachilikka asoslangan bo'lib, bu hududlarda byudjet imkoniyatlari cheklangan. Hududiy byudjet imkoniyatlari maktablarni qurish, ta'mirlash va jihozlash darajasini belgilaydi.

Viloyatda jami 1256 ta umumta'lim maktablari bo'lib, 826 tasi tog' va tog'oldi tumanlarda joylashgan [2, 3]. Umumiy o'quvchilar soni 398674 kishi bo'lib, viloyat umumiy o'quvchilar sonining 60 % ini, pedagog o'qituvchilar soni 36721 nafar -bu ham umumiy viloyat maktab pedagog o'qituvchilarining 60 % ini tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyati tog' va tog'oldi qishloq tumanlari maktablari statistik ko'rsatkichlari

Qashqadaryo viloyatidagi 14 ta qishloq tumani va viloyat markazi hisoblangan 2 ta – Qarshi va Shahrisabz shaharlari bilan o'rganilayotgan jami 16 ta ma'muriy hududlardagi statistik ma'lumotlarni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, tog' va tog'oldi ma'muriy hududlar va tekislik hududlar son jihatidan bir xil taqsimlangan bo'lib, ammo maktablar, o'quvchilar va o'qituvchilar soni jihatidan yetakchilik qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham ta'lim infratuzilmasining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qishloq joylarda aholining daromad darajasi pastligi, migratsiya va mahalliy byudjetlarning cheklangan imkoniyatlari maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga to'sqinlik qiladi. Bu holat chekka hududlarda malakali o'qituvchilarning yetishmasligiga va ta'lim xizmatlari sifatining pasayishiga olib keladi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish, jamoatchilikni jalb qilish va mahalliy hokimiyat organlarining salohiyatini oshirish orqali bu muammolarni hal etish yo'llari ko'rsatilgan. Mahalliy hamjamiyatlarning maktab infratuzilmasini rivojlantirishdagi ishtiroki loyihalarning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati kabi mintaqalarda bu mexanizmlarning amaliyotdagi samaradorligi, ularni joriy etishdagi huquqiy va institutsional cheklovlar bo'yicha chuqur empirik tadqiqotlar yetishmaydi. Jamoatchilikni jalb qilishning samarali modellari bo'yicha tadqiqotlar dolzarbdir.

Metodologik va tashkiliy yondashuvlar ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Loyihalarni boshqarishning zamonaviy usullari, risklarni baholash va infratuzilmani rejalashtirishda kompleks yondashuvlar muhokama qilinadi. Mahalliy hamjamiyatlarni loyihalash va amalga oshirish jarayonlariga jalb qilish loyihalarning barqarorligini oshirishga yordam beradi. O'zbekiston sharoitida, jumladan Qashqadaryo viloyatida, ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash, shuningdek,

ta'lim, sog'liqni saqlash va kommunal xizmatlar sektorlari o'rtasida integratsiyalashgan rejalashtirishni yo'lga qo'yish dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2026-2028-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-393-son qarori
2. Nurmatov A.U. Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy xususiyatlari (Dehqonobod tumani misolida) // "Zamonaviy geografik tadqiqotlarda integratsiya: muammolar va yechimlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2024-yil 11-12-oktabr. B. 372-376.
3. Nurmatov A.U. Qashqadaryo viloyati umumta'lim muassasalari va ularning infrastrukturasi hududiy jihatlari // Ilm ham jamiyat. №3.2025. B. 33-36
4. Nurmatov A.U. Qishloq joylari barqaror rivojlanishini baholashning uslubiy yondashuvlari // "Yangi O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani: Rivojlanish muammolari va istiqbollari". Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2023-yil 19-20 may. B. 169-172.
5. Nurmatov A.U, Xudoyberdiyev B.Sh. Qashqadaryo viloyati ijtimoiy infratuzilma geografiyasi (maktabgacha ta'lim muassasalari misolida) // Tadqiqotlar. Jahon ilmiy – metodik jurnali. ISSN:3030-3613. 81-son_1-to'plam_Mart-2026. B. 286-290.
6. Fayzullayev M.A, Nurmatov A.U. Qashqadaryo viloyatida umumiy o'rta ta'lim muassasalari infrastrukturasi takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari // "Geodeziya, kartografiya va geoinformatika" Ilmiy-texnik jurnal. ISSN-I-2181-4546. 2025-yil 3-son. B. 336-346
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari. www.stat.uz
8. Qashqadaryo Statistika agentligi ma'lumotlari <https://qashstat.uz/>